



ABDULLAXON II DAVRIDA BUXORO XONLIGI

Mo'ydinov Muhammadali

Farg'ona Davlat Universiteti Tarix fakulteti

3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mohir sarkarda va davlat arbobi Abdullaxon II davri tarixi xususida so'z yuritilgan bo'lib, maqolada o'rta asrlar tarixiga oid manbalar asosida tahlil qilingan ma'lumotlar o'rin olgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается история эпохи великого полководца и государственного деятеля Абдулла-хана II.

Abstract: This article deals with the history of the era of the great general and statesman Abdullah Khan II.

Kalit so'zlar: Abdullaxon II, Buxoro, Samarqand, Movorounnahr, taxt, saroy, soliq, Shayboniylar, Ashtarxoniylar.

Ключевые слова: Абдулла-хан II, Бухара, Самарканд, Моворуннахр, трон, дворец, налог, Шайбани, Аштархани.

Key words: Abdullah Khan II, Bukhara, Samarkand, Movorunnahr, throne, palace, tax, Shaibani, Ashtarkhani.

Kirish. Abdullaxon II (Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek Sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abulxayrxon) 1534-yil Miyonkol Ofarinkent qishlog'i tug'ulgan, 1598-yil 8-fevralda vafod etgan va Samarqand, Buxoro yaqinidagi Bahouddin majmuasiga dafn etilgan. O'zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining Shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdor davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma'rifat va madaniyat homiysi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Abdullaxon II Shayboniyxon vafotidan keyin parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, Markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog'idan juda qattiq kurashlar olib borgan. Toshkent hokimi Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) bilan Koson yonida 1548-yil, Mo'g'uliston xoni Abdurrashidxon va Shayboniylardan Do'stum sultonlar bilan Forob yonida 1554-yil jang qilgan. Yosh Abdullaxon o'zining hukmdor sifatidagi butun g'ayratini 1551 yil Karmanada bo'lgan jangda namoyish etgan. Viloyatga Toshkentdan Navro'z Ahmadxon va Samarqanddan Abdullatifxon hujum qilgan, otasi Iskandar Sulton Amudaryo ortiga kochgan. Abdullaxon II otasi vazifasini o'z zimmasiga olib bu hujumni muvaffaqiyatli qaytargan. [1:110]

Muhokama. Abdullaxon II 1552-1556-yillarda o'z mulkini g'arbga Buxoro tomonga va Janubiy-Sharqqa qarshi va Shahrisabz tomonga kengaytirishga intilgan. Bu say-harakatlari dastlab muvaffaqiyatsiz chiqqan, 1556-yili otasining meros mulkini tashlab Maymanaga qochishga majbur bo'lgan. U amakisi Balx hokimi Pirmuhammaddan harbiy yordam olib va piri Jo'ybor xojalaridan Xoja Muhammad Islom ko'magida Navro'z Ahmadxon keyin uning



o'g'illari Darveshxon va Bobo sultonlarga qarshi uzoq muddat kurash olib borgan. Navro'z Ahmadxon vafot etgach Abdullaxon II 1556-yil Karmana va Shahrisabzda o'z hukmronligini tiklaydi va 1557 yil mayda Buxoroni qo'lga kiritadi va uni davlatning poytaxtiga aylantiradi. Sulton Abdullaxon II 1561 yil otasini davlat boshlig'i xon deb e'lon qilib, uning nomidan mamlakatni o'zi boshqaradi. Markaziy xokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortgan Shayboniy sultonlar bilan kurashib Balxni 1574-yil, Samarqandni 1578-yil, Toshkent, Sayram, Turkistonni 1583-yil va Farg'onani 1583-yilda egallaydi. 1583-yil otasi Iskandarxon vafot etgandan so'ng, mamlakatni o'z nomidan boshqara boshlaydi. [2:85]

Natijalar. Markaziy hokimiyatga qarshi ko'tarilgan 1583-yil Maymana va Garchistonda, 1585-yilda Badaxshondagi qo'zg'olon, va tartibsizliklarni bostirgan. 1594-1596-yilda Xorazmga ikki marta yurish qilib, u yerda Markaziy hokimiyat hukmronligi qayta tikladi. Abdullaxon II mamlakat hududi yaxlitligini tiklash yo'lida qo'shni xorijiy davlatlar bilan ham kurash olib borgan. Masalan Turkiya Movarounnahrda o'z ta'sirini kuchaytirish niyatida Abdullaxon II ga qarshi kurashda Bobo sultonga yordam bergan. Bobo sulton turk askarlari yordamida Nasaf yonida Abdullaxon II ga qarshi jang qilgan. Sulton Abdullaxon II Xuroson va Gilon uchun Safaviylar bilan kurashib bu xududlarni o'z tasarrufiga kiritgan. Sharqiy Turkistonga qilingan yurishda Qashqar va Yorkend viloyatlarini qo'lga olgan. Boburiylar Badaxshon, shimol Afg'oniston va Xuroson uchun Abdullaxon II ga qarshi kurashganlar. Abdullaxon II bunga qarshi Sind 1583-yilda, Kashmirni 1586-yilda egallab, davlatning Janubiy chegaralarini mustahkamlashga erishgan. Abdullaxon II davrida mamlakat hududi Qashqardan Orol va Kaspiy dengiz sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan Xurosonning Sharqiy qismigacha bo'lgan. Abdullaxon II hayotining so'nggi yillarida o'g'li Abdulmo'min bilan murosasi to'g'ri kelmay qolgan. Abdulmo'min 1582-yil kuzidan Balxni otasi nomidan boshqargan. Iskandarxon davrida Abdullaxon II haqiqiy amaldagi hukmdor bo'lgani kabi, Abdulmo'min ham keksaygan otasiga nisbatan shunday mavqeni egallamoqchi bo'lgan. Faqat ulamolarning aralashuvi tufayligina ota-bola o'rtasida ochiq urush harakatlari boshlanmagan va Abdulmo'min otasiga bo'yin egishga majbur bo'lgan. Ular o'rtasidagi munosabatlar keskinlashganidan xabar topgan qozoq xonlaridan Tavakkalxon Toshkent viloyati va Samarqand oraliqidagi yerlarga bostirib kirib, unga qarshi yuborilgan qo'shinni yenggan. Qozoq xonlariga qarshi safarga otlangan Abdullaxon II Samarqandga yetganda vafot etgan. Abdullaxon II faol tashki siyosat olib borgan. Bu davrda Shayboniylar Eron, Hindiston, Turkiya, Xitoy, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan keng diplomatik, iqtisodiy, savdo aloqalari olib borganlar. Abdullaxon II elchilari 1583-yil Moskvadan o'q dori, ov qushlari, mato olib kelganlar. Bunday elchilik 1589-1595-yillarda ham qaytarilgan. Abdullaxon II ning mamlakat ichki siyosatidagi, davlat boshqaruv tizimini mustahkamlash, ayniqsa pul islohoti o'tkazish yo'lidagi faoliyati keyingi davrlarda ham saqlanib qolgan. [3:145]

Abdullaxon II sulton ko'plab turli inshootlar qurdirgan. Abdullaxon II davrida Buxoro yaqinidagi Sumiton (Jo'ybor) mavzesida Jo'ybor xojalaridan Abu Bakr Sa'd mozori atrofida madrasa, masjid, xonaqoh va chorbog', Buxoroda madrasa, Hammom, Govkashon, Fatxulla qushbegi, Mirakan, Xoja Muhammad Porso, yangi Chorsu, Tim, Karmana yaqinida Zarafshon daryosi ustiga ko'prik va boshqalar qurildi. Bunday inshootlar va karvonsaroylar



Samarqand, Toshkent, Balx va boshqa shaharlarda ham qurilgan. (masalan, Abdullaxon II ning nufuzli amiri Qulbobo Ko'kaldosh sharafiga Toshkentda qurilgan Ko'kaldosh madrasasi). Karvon yo'llarida sardobalar, rabotlar, kanallar, suv omborlari, ko'priklar (masalan, Surxondaryoda xalq orasida Iskandar ko'prigi nomi bilan mashhur bo'lgan G'ishtko'prik), chorbog'lar bunyod ettirgan. Abdullaxon II davrida mamlakatda shaharsozlik, adabiyot, ilm-fan taraqqiy etgan. Buxoro madaniyat, ilm-fan markaziga aylangan Hofiz tanish Buxoriyning Abdullanoma ("Sharafnomayi shohiy") 1584-1589-yillar, Amin Ahmad Roziyning "Haft iqlim" 1583-yil, Mutribiyning dunyo xaritasi ilova qilingan "Tazkiroti shuaro" taxminan 1593-1595-yillarda ilmiy asarlar yaratildi. Buxoroda mashhur Abdullaxon kutubxonasi tashkil qilingan. Unda mashhur xattotlar Mir Ali Hiraviy, Ahmad Husayniylar kitob ko'chirish bilan mashg'ul bo'lishgan. Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" asari Abdullaxonga bag'ishlangan. Bu davrda shoir, adib va ilohiyotchi olimlardan Mushfiqiy, Nizom Muammoiy, Muhammad Darvish Oxund, qozi Poyonda Zominiy, mulla Amir, Muhammad Altı Zohid, tabiblardan Mavlono Abdulhakim va boshqalar yashab ijod etgan. Abdullaxon II ning o'zi ham istedadli shoir bo'lib, "Xon" taxallusi bilan o'zbek va fors tillarida she'rlar yozgan. Mamlakatda hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlangan. Hunarmandlar turli ipak matolar, uy-ro'zg'or, zargarlik buyumlari, qurol-yarog'lar va boshqalar tayyorlaganlar. Movarounnahr ustalari tayyorlagan buyumlar ichki va tashqi bozorda juda xaridorgir bo'lgan. Harbiy san'at juda taraqqiy etgan. Qo'shin tarkibini nayza, qilich, manjaniq, va naftandoz bilan qurollangan otliq va piyoda askarlar tashkil qilgan. Abdullaxon II faol tashqi siyosat ham olib borgan. XVI asr ikkinchi yarmidan qo'shin Turkiya va Rossiyadan keltirilgan piltā miltiq va zambaraklar bilan qurollana boshlagan. Uning mamlakat ichki siyosatidagi, davlat boshqaruv tizimini mustahkamlash yo'lidagi faoliyati natijalari keyingi davrlarda ham saqlanib qolgan. [4:115]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan eng yirik hukmdor (1583-1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat homiysi. Toshkent hokimi Baroqxon (Navro'z Ahmadxon) bilan Koson yonida (1548), Mo'ngiliston xoni Abdurashidxon va shayboniylardan Do'stum sultonlar qo'shiniga qarshi Forob yonida (1554) jang qilgan. Yosh Abdulla sulton o'zining hukmdor sifatidagi butun g'ayrat shijoatini 1551-yil Karmanada namoyish etgan; viloyatga Toshkentdan Baroqxon va Samarqanddan Abdullatifxon hujum qilganlar, Iskandar sulton Amudaryo ortiga qochgan. Abdulla sulton otasi vazifasini o'z zimmasiga olib bu hujumni muvaffoqiyatli qaytargan. Keyingi yillarda (1552-56-y.) o'z mulkini G'arbga – Buxoro tomonga va janubi-sharq – Qarshi va Shahrisabz tomonga kengaytirishga intilgan. Bu say-harakat dastlab muvaffaqiyatsiz chiqqan, xatto 1556-yilda u ota meros mulkini tashlab Maymanaga qochishga majbur bo'lgan. U amakisi, Balx hokimi Pirmuhammaddan harbiy yordam olib va piri Xoja Muhammad Islom ko'makida Baroqxon, keyinchalik uning o'g'illari Darveshxon va Bobo Sultonlarga qarshi uzoq muddat kurash olib borgan. Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) vafot etgach (1556-y.), darhol Karmana va Shahrisabzda o'z hukmronligini tiklaydi, 1557-yili mayda Buxoroni qo'lga kiritadi va uni o'z poytaxtiga aylantiradi. 1561-yilda otasi - Iskandarxonni davlat boshlig'i - xon deb e'lon qilib, uning nomidan mamlakatni o'zi boshqara boshlaydi. Markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh



tortgan shayboniy sultonlar bilan kurashib, Balx (1574-y.), Samarqand (1578), Toshkent, Sayram, Turkiston (1583) va Farg'ona (1583-y) ni egallaydi. 1582-yilda Dashtga yurish qilib, Ulug'tog'ga qadar borgan. 1583-yilda otasi Iskandarxon vafot etgach mamlakatni o'z nomidan boshqara boshlaydi. Markaziy hokimiyatga qarshi ko'tarilgan Maymana va Garchiston (1583-y.), shuningdek, Badaxshon (1585)dagi g'alayon, tartibsizliklarni bostirgan. Xorazmga ikki marta yurish (1594 va 1596) qilib, u yerda markaziy hokimiyat hukronligi qayta tiklangan. Abdullaxon II safaviylar bilan Xuroson, Gilon uchun kurashib o'z tasarrufiga kiritgan. Sharqiy Turkistonga qilingan yurishda Qashqar va Yorkent viloyatlarini olgan. Boburiylar ham Badaxshon, Shimoliy Afg'oniston va Xuroson uchun Abdullaxon IIga qarshi kurashganlar. Abdullaxon II bunga qarshi Sind (1583), Kashmir(1586) ni egallab davlatning janubiy chegaralarini mustahkamlagan. Abdullaxon II davrida mamlakat hududi Qashqardan Orol va Kaspiy dengizlari sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan Xurosonning sharqiy qismigacha bo'lgan yerlardan iborat edi. Abdullaxon II hayotining so'ngi yillarida o'g'li Abdulmo'min bilan chiqishmay qolgan. Ular o'rtasidagi munosabatlar keskinlashganidan habar topgan qozoq xoni Tavakkalxon Toshkent viloyati va Toshkent – Samarqand oralig'idago yerlarga bostirib kirib, unga qarshi yuborilgan qo'shinni yengan. Unga qarshi safarga o'tlangan Abdullaxon II Samarqandga yetganida o'g'li Abdulmo'min 1598-yil 8-fevralda amir Muhammad Boqibiy bilan kelishib otasi Abdullaxon II ni zaxarlab o'ldiradi.

Abdullaxon II faol tashqi siyosat olib borgan. Uning mamlakat ichki siyosatidagi, davlat boshqaruv tizimini mustahkamlash, ayniqsa pul islohati o'tkazish yo'lidagi faoliyati natijalari keyingi davrlarda ham saqlanib qolgan. U ko'plab turli inshootlar qurdirgan.

Uning davrida mamlakatda shaharsozlik, adabiyot, ilm-fan taraqqiy etgan. Buxoro madaniyat, ilm-fan markaziga aylangan. Hofiz Tanish Buxoriyning „Abdullanoma“ („Sharafnomayi shohiy“) (1584-89), Amin Ahmad Roziyning „Haft iqlim“ (1583), Mutribiyning dunyo xaritasi ilova qilingan „Taskirati shuaro“ (taxminan 1593-95) va boshqa ilmiy asarlar yaratilgan. Buxoroda mashhur Abdullaxon madrasasi tashkil qilingan. Hasanxo'ja Nisoriyning „Muzakkiri ahhob“ asari Abdullaxon II ga bag'ishlangan.

Abdullaxon II ning o'zi ham istedodli shoir bo'lib, „Xon“ taxallusi bilan o'zbek va fors tillarida she'rlar yozgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma”, T.1999
2. Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahhob”, T.1993
3. Ahmedov B. “Istoriko-geograficheskaya literatura Sredney Azii” T.1985
4. Mir Muhammad Amini Buxari “Ubaydullaname” T.1957.